



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITA
RAISING BUYRUG'I**

2025-yil 8-may

80-A- son

**Din ishlari bo'yicha qo'mita huzurida jamoatchilik kengashini
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son Farmoniga asosan

B U Y U R A M A N :

1. Din ishlari bo'yicha qo'mita huzurida jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda - Jamoatchilik kengashi) qayta tashkil etilsin va uning tarkibi 1-ilogaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

Jamoatchilik kengashi Qo'mitaning markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati Qo'mitaning barcha hududiy bo'linmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlariga ham tatbiq etiladi.

3. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilovchi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom 2-ilogaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifasi etib:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash,

Qo'mita zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha Qo'mita va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga

o'shish;

birgalikda muloqot qilish, Qo'mitaning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Qo'mitani fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish belgilansin.

5. Qo'mita raisining 2024-yil 22-avgustdagi 37-A-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish raisning birinchi o'rinbosari D.Maxsudov zimmasiga yuklansin.

Rais



S. Toshboyev